

XORIJ MAMLAKATLARINING AHOLI ISTIQOMAT QILADIGAN HUDUDLARIDA XAVFSIZ MUHITNI YARATISH BO'YICHA TAJRIBASI



Sharipov Jasur Sattor og'li

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada ayrim xorijiy mamlakatlarning aholi istiqomat qiladigan hududlarida xavfsiz muhitni yaratish bo'yicha tajribasi tahlil qilingan. Yaponiya, Singapur, AQSH, Buyuk Britaniya va Skandinaviya davlatlarining jamoaga asoslangan jinoyatchilikning oldini olish modellari, ularning o'ziga xos xususiyatlari, afzalliklari va muammolari o'rganilgan. Shuningdek, ushbu modellarning nazariy asoslari, amaliy natijalari va ularning O'zbekiston sharoitida qo'llanilish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Jamoaga asoslangan jinoyatchilikning oldini olish tizimlarida jamoatchilik ishtiroki, ijtimoiy kapital, texnologiyalardan foydalanish va davlat-jamoat hamkorligining roli alohida ta'kidlangan. Tadqiqot natijalari asosida O'zbekistonda aholi istiqomat hududlarida xavfsiz muhitni yaratish bo'yicha aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: jamoaga asoslangan jinoyatchilikning oldini olish, xavfsiz muhit, jamoatchilik ishtiroki, ijtimoiy nazorat, "singan oynalar" nazariyasi, mahalla, jamoa politsiyasi, mahalliy hamkorlik, ijtimoiy profilaktika.

ОПЫТ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН ПО СОЗДАНИЮ БЕЗОПАСНОЙ СРЕДЫ В ЖИЛЫХ РАЙОНАХ

Аннотация: В статье анализируется опыт зарубежных стран по созданию безопасной среды в жилых районах, исследуются модели предупреждения преступности на основе общественного участия в Японии, Сингапуре, США, Великобритании и скандинавских странах, их особенности, преимущества и проблемы. Рассматриваются теоретические основы этих моделей, практические результаты и возможности их применения в условиях Узбекистана. Особо подчеркивается роль общественного участия, социального капитала, использования технологий и государственно-общественного партнерства в системах предупреждения преступности на основе общественного участия. На основе результатов исследования разработаны конкретные предложения и рекомендации по созданию безопасной среды в жилых районах Узбекистана.

Ключевые слова: предупреждение преступности на основе общественного участия, безопасная среда, общественное участие, социальный контроль, теория «разбитых окон», махалля, общественная полиция, местное сотрудничество, социальная профилактика.

EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES IN CREATING A SAFE ENVIRONMENT IN RESIDENTIAL AREAS

Abstract. This article analyzes the experience of foreign countries in creating a safe environment in residential areas. The article examines community-based crime prevention models in Japan, Singapore, the USA, the UK, and Scandinavian countries, their specific features, advantages, and challenges. The theoretical foundations of these models, practical results, and possibilities for their application in the context of Uzbekistan are also considered. The article emphasizes the role of community participation, social capital, use of technology, and public-private partnership in community-based crime prevention systems. Based on the research results, specific proposals and recommendations for creating a safe environment in residential areas of Uzbekistan have been developed.

Keywords: community-based crime prevention, safe environment, community participation, social control, broken windows theory, mahalla, community policing, local cooperation, social prevention.

Jahon miqyosida jinoyatchilikka qarshi kurash va fuqarolar uchun xavfsiz muhitni yaratish masalasi dunyo davlatlari siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylangan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi «2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1-son qarorida [1] «Har bir mahallada huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish» ustuvor vazifa etib belgilandi. Mazkur vazifa ilg'or xorijiy tajribani o'rganishni va uni O'zbekiston sharoitida qo'llash istiqbollarini belgilashni taqozo etadi.

Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda rivojlangan davlatlarda huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga qarshi kurashishning yangi usullari yaratilmoqda, ularning samaradorligi ijobiy baholanmoqda. Jumladan, jamoatchilik sa'y-harakatlariga asoslangan jinoyatchilikning oldini olish yondashuvi (Community-Based Crime Prevention) [2] aholi istiqomat qiladigan hududlarda xavfsiz muhitni yaratish bo'yicha samarali yechimlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Jamoatchilik sa'y-harakatlariga asoslangan jinoyatchilikning oldini olish yondashuvi – bu o'z ichiga vaziyatni va ijtimoiy elementlarni qamrab olgan jinoyatchilikka qarshi kurashish usulidir. Ushbu yondashuv jamoa a'zolarining faol ishtiroki, davlat organlari va mahalliy tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlik, shuningdek, har bir hududning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda jinoyatchilikning oldini olish strategiyalarini ishlab chiqishga asoslangan.

Yaponiya, Singapur, AQSH, Buyuk Britaniya va Skandinaviya davlatlarida qo'llanilayotgan jamoaga asoslangan jinoyatchilikning oldini olish modellari bugungi kunda o'zining ijobiy samarasini bermoqda. Zero, har bir mamlakatning o'ziga xos yondashuvlari, yutuqlari, muammolari va ularni hal qilish yo'llarini o'rganish orqali ma'lum bir ijobiy tajribalarini O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari haqida xulosalarga kelish mumkin.

Jamoatchilik sa'y-harakatlariga asoslangan

jinoyatchilikning oldini olish yondashuvi XX asr oxirlarida rivojlangan davlatlarda jinoyatchilikka qarshi kurashishning samarali usuli sifatida paydo bo'lgan [3]. Ushbu yondashuvning asosiy g'oyasi shundaki, jinoyatchilikning oldini olish faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlarning emas, balki butun jamiyatning vazifasidir. Jamoatchilik sa'y-harakatlariga asoslangan jinoyatchilikning oldini olish yondashuvi – bu davlatning jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimiga murojaat qilmasdan, jinoyat qonunchiligi, undagi jazo va sanksiyalarni qo'llamasdan, jamoatchilikning qarorlari va harakatlari asosida shaxs va jamiyat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan yondashuvlar majmui. Bunday yondashuv o'z ichiga jamiyatning barcha a'zolari jinoyatchilikning oldini olishda faol ishtirok etishini, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va jamoatchilik orasida o'zaro ishonchga asoslangan hamkorlik qilinishi, mahalliy muammolarni aniqlash va ularni hal qilish uchun mahalliy resurslardan foydalanish va jinoyatchilikning oldini olish choralari samaradorligini muntazam baholab borish, muhokama qilish va doimiy takomillashtirishni oladi.

Ilmiy izlanishlar jamoatchilik sa'y-harakatlariga asoslangan jinoyatchilikning oldini olishning quyidagi nazariy asoslari mavjudligini ko'rsatadi:

ijtimoiy nazorat nazariyasi (social control theory) [4] – kichik jamoa ichida mustahkam ijtimoiy aloqalarni shakllantirish ijtimoiy nazorat kuchaytirilishiga xizmat qiladi va shu orqali jinoyatchilik kamayadi);

“singan oynalar” nazariyasi (broken windows theory) – mazkur nazariya Uilson va Kelling [5] tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra yashash hududlari muhitidagi buzilish, tartibsizlik va tozalikning yo'qligi aholi yashash joylarida jamoatchilikning mas'uliyatsizligini ko'rsatadi va jinoyat sodir etilishi uchun muhit yaratadi;

vaziyatli jinoyat profilaktikasi nazariyasi (situational crime prevention – jinoyat sodir etish imkoniyatlarini kamaytirish [6]) – bu nazariya jinoyat sodir etish imkoniyatlarini kamaytirish, ya'ni atrof-muhit dizayni va boshqaruvi orqali jinoyat sodir etish xavfini kamaytirish orqali

jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan;

rivojlanishga qaratilgan jinoyat profilaktikasi (developmental crime prevention [7]) – bu yondashuv jinoyat sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarda jinoyat sodir etish motivi va maqsadi shakllanishiga olib keladigan omillarni bartaraf etish, bolalar sog'lig'i va o'quv ko'rsatkichlariga ustuvorlik berish, bolalarni zo'ravonlik qurboni bo'lishining oldini olish, zo'ravonlikka duchor bo'lganlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish orqali jinoyatchiga aylanishning oldini olishga asoslanadi.

Jamoa ishtirokiga asoslangan xavfsizlik tizimi nazariyalarining xorij mamlakatlarida qo'llanilishini ko'rib chiqamiz.

Yaponiya dunyodagi eng xavfsiz mamlakatlardan biri hisoblanadi. Mamlakatda jinoyatchilik darajasining pastligi ko'p jihatdan samarali jamoaviy huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimining mavjudligi bilan bog'liq. Yuqori jamoat xavfsizligi darajasiga qaramay, jinoyatchilikning oldini olish (bohan) Yaponiya jamiyatida keng tarqalgan [8]. Yaponiyada jamoaga asoslangan xavfsizlik tizimi (Bohan [9]) quyidagi elementlarni, ya'ni ko'cha patrullari, mahalla qo'mitalari, ko'ppakli patrullar va e-JIKEI tarmog'ini o'z ichiga oladi. Bunda ko'cha patrullari jinoyatchilikning oldini olish uchun aholi yashash hududlarida tashkil etish, bu bo'yicha seminarlar o'tkazish, ijodiy sa'y-harakatlar va tadbirlarni jinoyatchilikning oldini olishni kundalik hayotga integratsiya qilish orqali amalga oshiradi.

Yaponiyaning har bir mahallasida jinoyatning oldini olish bo'yicha uyushmalar – mahalla qo'mitalari mavjud bo'lib, ular politsiya va jamiyat o'rtasidagi uzviy aloqani ta'minlashga xizmat qiladi va bugungi kunda Yaponiya bo'yicha 500.000 dan ortiq joylarda faoliyat yuritadi.

Ko'ppakli patrullar (wan wan patororu) deb nomlangan faoliyat aholining o'z itlarini sayr qildirishi jamiyat xavfsizligiga hissa qo'shuvchi omil sifatida belgilab, ko'chada «kuzatuvchi ko'zlar» sonini ko'paytirilishiga xizmat qiladi.

e-JIKEI tarmog'i – bu zamonaviy texnologiyalar yordamida jamiyat xavfsizligini yaratishga

qaratilgan loyiha bo'lib, bu tizimda har bir inson o'z uyi atrofini kameralar yordamida kompyuter monitoringidan dasturiy ta'minotdan foydalanib kuzatadi.

Yaponiyaning Milliy politsiya agentligi (NPA) 1990 yillardan beri jinoyatchilikning oldini olishda mahalliy jamoatchilikning ko'proq ishtirok etishini targ'ib qilib kelmoqda va ijtimoiy kapitalni jinoyatchilikning oldini olish strategiyasi sifatida qurishga intilmoqda. Politsiya jinoyatchilik muammosini yakka o'zi hal qila olmasligini anglab yetgan va shu sababli Yaponiyadagi ko'p munitsipalitetlar «singan oynalar» nazariyasidan va jinoyatchilikning atrof-muhit dizayni orqali oldini olish (CPTED) g'oyasidan mahalladagi jinoyatchilikka qarshi kurashishda keng foydalanmoqda. Yaponiya tajribasining afzalliklari qatorida jamoa uyushmalari tomonidan boshqariladigan jinoyatchilikning oldini olish faoliyati butun Yaponiya bo'ylab keng tarqalgan va atrof-muhit kriminologiyasidagi g'oyani namoyon etishini, jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha ko'ngilli tashkilotlar soni o'sishda davom etayotganligi (2024 yil oxirida 48.000 ga yaqin bunday tashkilotlar mavjud bo'lgan) jamoatchilik a'zolarining maxsus harakatlari ijtimoiy kapitalni boyitishi va ham subyektiv, ham obyektiv ravishda jamoa xavfsizligi va xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qilayotganligini ko'rsatmoqda.

Singapur dunyodagi eng xavfsiz shahar-davlatlardan biri hisoblanadi va uning jinoyatchilikka qarshi kurash va xavfsiz muhitni yaratish borasidagi tajribasi jahon hamjamiyati tomonidan yuqori baholanmoqda [10]. Singapurning jamoaga asoslangan xavfsizlik modeli qo'shnichilik qo'mitalari (neighbourhood committees), fuqaro yordam patrullari (citizen on patrol), mahalla politsiya markazlari (neighbourhood police centres), xavfsiz mahalla dasturi (safe neighbourhood programme) kabi asosiy elementlarni o'z ichiga oladi.

Qo'shnichilik qo'mitalari (neighbourhood committees) mahalliy aholi o'rtasida ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash, xavfsizlik masalalari bo'yicha hamkorlik qilish va mahalliy muam-

molarni hal qilish uchun tashkil etiladi va qo'shnilar tomonidan umumiy xavfsizlikni ta'minlash o'zaro kelishilgan holda amalga oshirilishi uchun xizmat qiladi.

Singapurda fuqaro yordam patrullari (citizen on patrol) jamoaga asoslangan jinoyatchilikning oldini olish yondashuvi bo'lib, muayyan aholi turar joylarida istiqomat qiluvchi shaxslardan iborat politsiyaga yordam beruvchi patrullardan xavfsizlikni ta'minlashda foydalanish nazarda tutilgan.

Mahalla politsiya markazlari (neighbourhood police centres) politsiya va mahalliy aholi o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha ma'lumot tarqatish va mahalliy muammolarni hal qilish uchun xizmat qiladi.

Xavfsiz mahalla dasturi (safe neighbourhood programme) aholi yashash hududlaridagi xavfsizlik muammolarini aniqlash va hal qilish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va xavfsizlik bo'yicha ma'rifiy ishlarni olib borish uchun mo'ljallangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Singapur modelining afzalliklariga davlat va mahalliy hokimiyatlar o'rtasidagi yaqin hamkorlik yo'lga qo'yilganligini, texnologiyalardan samarali foydalanish (videokuzatuv, ma'lumotlarni tahlil qilish tizimlari va boshqalar)ni, jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha keng qamrovli ma'rifiy dasturlar qo'llanilishini va ijtimoiy hamkorlik va jamoa aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan dasturlar ishlab chiqilib, joriy etilganligini kiritishimiz mumkin.

Yuqoridagilar bilan birga, Singapur o'zining «Aqlli millat» (Smart Nation) strategiyasi doirasida jinoyatchilikning oldini olish va xavfsizlikni ta'minlash uchun yangi texnologiyalarni joriy etishni boshlab yuborgan. Bu yondashuv sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahlili asosida jinoyatchilikni bashorat qilish tizimlarini, jamoatchilik xavfsizligini ta'minlash uchun aqlli sensorlar va IoT (Internet of Things) qurilmalarini, fuqarolar va politsiya o'rtasidagi aloqalarni osonlashtiruvchi mobil ilovalarni joriy etayotganligi bilan ham diqqatga sazovor.

Buyuk Britaniya va AQSH jamoaga asoslangan jinoyatchilikning oldini olish sohasida katta tajribaga ega. Ularning yondashuvlari bir-biriga o'xshash bo'lsa-da, o'ziga xos xususiyatlarga ham ega.

Buyuk Britaniyaning jamoaga asoslangan jinoyatchilikning oldini olish modeli mahalla kuzatuv sxemalari (neighbourhood watch schemes), politsiyaning muammoga yo'naltirilgan faoliyati (problem-oriented policing), mahalliy jinoyatchilik va tartibsizlikka qarshi hamkorlik (crime and disorder reduction partnerships), jamoatchilik xavfsizligi hamkorligi (community safety partnerships) kabilarni qamrab oladi.

AQSHda jamoaga asoslangan jinoyatchilikning oldini olish modeli esa jamoa politsiya faoliyati (community policing), mahalla kuzatuv dasturlari (neighborhood watch programs), jamoa rivojlanishi va jinoyatchilikning oldini olish (community development and crime prevention), muammolarni hal qilishga qaratilgan politsiya faoliyati (problem-solving policing) kabilarni o'z ichiga oladi. Yuqorida keltirilgan jamoatchilik va politsiya faoliyati strategiyalari 1970 yillardan beri mamlakat bo'ylab ko'plab politsiya bo'limlari tomonidan jinoyatchilik, mahalla tartibsizligi kabi muammolarni hal qilish, mahalliy aholini jinoyatchilikka qarshi kurashda ishtirok etishga rag'batlantirish, turli sohalardagi olimlar loyihalarni jamoa ehtiyojlariga mos ravishda ishlab chiqish uchun jamoaga asoslangan ishtirokchi tadqiqot (CBPR) yoki ishtirokchi harakat tadqiqoti (PAR) kabi ishtirokchi tadqiqot usullaridan foydalanish, muayyan jinoyatchilik muammolarini aniqlash va ularni hal qilishda politsiya va jamiyat hamkorligini ta'minlash uchun joriy etilgan.

Buyuk Britaniya va AQSH modellari aholining o'z xavfsizligini ta'minlashdagi ishtirokini rag'batlantirishga xizmat qiladi, mahalliy ehtiyojlarga moslashuvchan yondashuv asosida tashkil etiladi, ko'p sohali hamkorlikka va aniq ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish tizimiga asoslangan holda faoliyat yuritadi.

Skandinaviya davlatlari (Shvetsiya, Norvegiya, Daniya va Finlyandiya) ijtimoiy profilaktika

modeliga tayanadigan jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha o'ziga xos yondashuvga ega.

Skandinaviya mamlakatlari jinoyatchilikning oldini olish tizimida ijtimoiy profilaktika modeli (social prevention model), jinoyatchilikning oldini olish kengashlari (crime prevention councils), mahalliy darajadagi mas'uliyat, strategik hududiy xaritaga olish kabilar qo'llaniladi.

Xususan, ijtimoiy profilaktika modeli (social prevention model) mintaqadagi zamonaviy masalalar, siyosat va tarixiy tajribaning uyg'unligiga asoslangan bo'lib, ijtimoiy demokratiya tamoyillari amalda qo'llanilishiga xizmat qiladi. Jinoyatchilikning oldini olish kengashlari (crime prevention councils) ham o'ziga xos tajriba bo'lib, (masalan, Shvetsiyada munitsipalitetlarning 90 % da mavjud) jinoyatchilikning oldini olish kengashlarining roli politsiya, maktablar va boshqa mahalliy organlar o'rtasidagi sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, mahalliy darajadagi mas'uliyatni rivojlantirish nafaqat jinoyatchilikni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni hal qilish orqali, balki munitsipalitetlarning jinoyatchilikning oldini olishda faol bo'lishiga erishish orqali ham ro'yobga chiqariladi. Shvetsiyada jinoyatchilikning oldini olish uchun shahar turar-joy hududlarida turmush sharoiti indeksini o'lchash va xaritaga olish uchun nazariy va metodologik jihatdan asoslangan geoaxborot tizimlariga asoslangan model ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, Shvetsiyada jinoyat qurbonlarini qo'llab-quvvatlash ishlari alohida e'tiborga olinib, bu jinoyatchilikning oldini olish strategiyasining bir qismi sifatida qaraladi.

Bizningcha, Skandinaviya modelining afzalliklari qatoriga ijtimoiy adolat va tenglikka asoslangan yondashuvni, jinoyatchilikning ijtimoiy-iqtisodiy sabablariga e'tiborni, mahalliy demokratiya va fuqarolik jamiyatining faol ishtirokini, ilmiy tadqiqotlarga asoslangan strategiyalarni kiritish mumkin.

Rivojlangan davlatlarning jamoaga asoslangan jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha tajribalarini o'rganish O'zbekiston uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Jamoatchilik sa'y-harakatlariga

jinoyatchilikning oldini olish modellarining muvaffaqiyati asosan jamiyatdagi ijtimoiy aloqalarning mustahkamligiga, davlat va fuqarolar o'rtasidagi ishonchga hamda resurslarning mavjudligiga bog'liq.

Xorij mamlakatlarida qo'llanilayotgan jamoaga asoslangan jinoyatchilikning oldini olish modellarini o'rganish natijasida jamoatchilik sa'y-harakatlariga jinoyatchilikning oldini olish yondashuvi jahonning rivojlangan davlatlarida keng qo'llanilayotganligini, o'zining samaradorligini isbotlaganligini ta'kidlash, har bir mamlakatdagi jamoaga asoslangan jinoyatchilikning oldini olish modeli o'sha mamlakatning o'ziga xos madaniy, ijtimoiy va siyosiy xususiyatlarini hisobga olgan holda shakllanganligini e'tirof etish, jamoatchilik sa'y-harakatlariga asoslangan jinoyatchilikning oldini olish modellarining asosiy elementlari sifatida aholining faol ishtirokini, davlat organlari va jamoat tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikni, texnologiyalardan samarali foydalanishni, mahalliy xususiyatlarni hisobga olishni, ilmiy tadqiqotlarga asoslangan yondashuvni alohida ko'rsatish kerak.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, jamoatchilik sa'y-harakatlariga asoslangan jinoyatchilikning oldini olish modellari bo'yicha xorij tajribasini o'rganish asosida quyidagi takliflarni kiritish maqsadga muvofiq:

1. Mahallalarda xavfsiz muhitni yaratishda "mahalla yettiligi"ning mas'uliyatini oshirish, mahalla tizimini takomillashtirish. O'zbekistonda mahalla instituti jamoaga asoslangan jinoyatchilikning oldini olish modeli uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Mahalla fuqarolar yig'inlarining bu boradagi vakolatlarini kengaytirish va imkoniyatlarini oshirish lozim.

2. Jamoatchilik va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamkorligini kuchaytirish, shu jumladan jinoyatchilikning oldini olishda ichki ishlar organlari va jamoatchilik o'rtasidagi hamkorlikka asoslangan yondashuvni keng joriy etish.

3. Texnologiyalardan keng foydalanish, xususan, jinoyatchilikning oldini olish uchun zamonaviy texnologiyalar, jumladan, videokuzatuv

tizimlari, ma'lumotlarni tahlil qilish tizimlari va mobil ilovalardan keng foydalanish.

4. Kriminogen vaziyatga ko'ra hududlarni tasniflash tizimini yanada takomillashtirish, aholi istiqomat qiladigan hududlarni kriminogen vaziyatga ko'ra tasniflash va har bir toifadagi hudud uchun alohida yondashuv ishlab chiqqan holda huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini tashkil etish.

5. Jinoyatchilikning ijtimoiy-iqtisodiy sabablarini bartaraf etish choralari ko'rish, jinoyatchilikning asosiy sabablari bo'lgan ishsizlik, kambag'allik va ijtimoiy tengsizlik kabi muammolarni hal qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish.

6. Jinoyatchilikning oldini olish sohasida ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish va ularning natijalarini amaliyotga joriy etish.

7. Jamoatchilik sa'y-harakatlariga asoslangan jinoyatchilikning oldini olish sohasida ilg'or tajribaga ega bo'lgan mamlakatlar bilan hamkorlikni kuchaytirish va tajriba almashish.

Xulosa qiladigan bo'lsak, xorij mamlakatlari aholi istiqomat hududlarida xavfsiz muhitni yaratish bo'yicha tajribasi O'zbekiston uchun muhim ahamiyatga ega. Bu tajribalarni O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda qo'llash jinoyatchilikning oldini olish tizimini takomillashtirish va aholi uchun xavfsiz muhitni yaratishga katta hissa qo'shishi mumkin. Shuning uchun O'zbekiston bu sohadagi yangi tendensiyalar va yondashuvlarni doimiy ravishda kuzatib borishi va o'z tizimini takomillashtirib borishi zarur.

Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" 2025-yil 03 yanvardagi PQ-1-son qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.01.2025-y., 07/25/01/0059-son
2. Goddard, Tim, and Andrea Headley, 'Community-Based Organizations and Crime Prevention', Oxford Handbook Topics in Criminology and Criminal Justice (2012; online edn, Oxford Academic, 2 June 2014), <https://doi.org/10.1093/oxfordhb/9780199935383.013.81>
3. Nubani, L., Fierke-Gmazel, H., Madill, H., & De Biasi, A. (2023). Community Engagement in Crime Reduction Strategies: A Tale of Three Cities. *Journal of Participatory Research Methods*, 4(1). <https://doi.org/10.35844/001c.57526>
4. Tim Hope Community Crime Prevention. *Crime and Justice* · January 1995 DOI: 10.1086/449229 // The Open Universit https://www.researchgate.net/publication/274043979_Community_Crime_Prevention
5. James Q. Wilson. George L. Kelling. The police and neighborhood safety. Broken Windows // *The Atlantic*. March 1982. <https://www.theatlantic.com/magazine/archive/1982/03/broken-windows/304465>
6. Clark, Ronald W. "Crime Situational Prevention." *Crime and Justice* 19 (1995): 91-150. <http://www.jstor.org/stable/1147596>.
7. Homel, R. & Thomsen, L. Developmental crime prevention. In Nick Tilley & Aiden Sidebottom (Eds.). *Handbook of Crime Prevention and Community Safety* (2nd edition) (pp.57-86). UK: Routledge.
8. Kawai, K., Ogino, T., Watabe, T., & Kawachi, I. (2018). Crime prevention through community empowerment: An empirical study of social capital in Kyoto, Japan. *International Journal of Law, Crime and Justice*, 54, 89-101. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1756061618300740>
9. Herbert, A., Hayashi, K., & Shimizu, S. (2018). Plus Bouhan: A new community-based approach to crime prevention in Japan. *International Journal of Law, Crime and Justice*, 54, 102-110. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S1756061618300752>
10. Brown, L. P. (1984). Community Policing in Japan and Singapore. *Office of Justice Programs*, 19-35. <https://www.ojp.gov/ncjrs/virtual-library/abstracts/community-policing-japan-and-singapore-community-policing>